

DINIY VA MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA SHAKLLANGAN KEKSALAR MAKTABINING BUGUNGI KUNDAGI O'RNI VA ROLI

Ochilova Gulshoda Yoqub qizi

Nizomiy nomidagi TDPU O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada qadriyat tushunchasi, uning mazmuni, islom dinidagi shaxs tarbiyasiga oid qarashlar va milliylikimizni o'zida mujassamlashtirgan o'zbekona qadriyatlarining ahamiyati, yurtimizda keksalarning yosh avlod tarbiyasidagi muhim jihatlari yoritilgan.

Key Words: Qadriyat, komil inson, milliylik, insonparvarlik, keksalar maktabi hayo va andisha, shaxs tarbiyasi.

Jamiyat taraqqiyotining muayyan bosqichlarida ijtimoiy-iqtisodiy hodisalarga munosabat xilma-xil tarzda namoyon bo'ladi. Mustaqilligimizning birinchi kundan boshlab hayotimizning barcha jabhalarida "qadriyat", "milliy urf -odatlar" kabi tushunchalar tez-tez ishlatiladigan bo'lib qoldi. Qadriyat o'zi nima? Uning mohiyati asosiy jihatlari nimalardan iborat? Qadriyatlar deyilganda inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo'lgan millat, elat va ijtimoiy guruhlarning manfaatlarini va maqsadlariga xizmat qiladigan va shu tufayli ular tomomidan baholanib, qadrlanadigan tabiat va jamiyat ne'matlarini tushunamiz. Qadriyatlar har doim insonlarni mehr-oqibatga o'zaro hamjihatlikka chorlovchi, asrlardan-asrlarga o'tib xalq turmush tarzining ajralmas qismiga aylangan moddiy va ma'naviy jarayonlarning sa'ra namunalaridir. Zero, qadriyat bu millatning o'tmishi, buguni va kelajagini belgilab beruvchi muhim omildir. Bizga ma'lumki, har bir xalqning o'ziga xos qadriyatlar sisilasi mavjud bo'lib, u xalqning ko'zgusi hisoblanadi. Shuning asosida millatning turmush tarzida, madaniyati va ma'naviyatida ongi-shuurida, o'zaro muloqotida aks etib, o'z ifodasini topadi. Qadriyatlar har bir xalqning qon-qonigacha singib, insoniyat uchun muhim ahamiyat kasb etadi va shu tariqa, millat va elatlarning ijtimoiy manfaatlarini va maqsadlariga xizmat qiladi/

O'zbek oilalarda azal-azaldan yosh avlodlarga o'zidan kattalarga, keksalarga hurmat ko'zi bilan qarash o'rgatiladi. Xonadonlarimiz fayzi-yuzlari nurli otaxon-u onajonlarimiz unib, o'sib kelayotgan yosh avlodlar uchun diniy va milliy qadriyatlarga boy benazir xazinadirlar.

Ularning ibratli hayoti, yashash tarzi bugungi kun yoshlari uchun go'zal namunadir. Keksalarimiz tomonidan yosh avlod tarbiyasida muhim ahamiyat kasb etgan qadriyatlar jamiyat taraqqiyoti jarayonida shakllangan va rivojlangan, o'tmishda, hozirgi kunda va kelajakda ham ijtimoiy ahamiyat kasb etgan moddiy ma'naviy boyliklardir. Shu nuqtayi nazaridan, tarixiy tajriba va an'analarning meros bo'lib o'tishi – bularning barchasi yangidan- yangi avlodlarni tarbiyalaydigan qadriyatlarga aylanib qolishi lozim.

Bu jihatdan islom dini o'zida buyuk qadriyatlarni jam etgan, avlodlardan avlodga o'tib kelayotgan ibratomuz xazinadir. Qadim zamonlardan oq yurtimizda din erkinligi mavjud bo'lgan.

Zardushtiylar, buddaviylar, moniylar, musulmonlar va boshqa diniy e'tiqoddagilar inoqlikda yashaganlar. Xalqimiz ma'naviy jihatidan ko'pgina afzalliklarga ega bo'lgan islom dinini qadrlaydi. Nafaqat xalqimiz, balki, Yevropa olimlari Qur'onni dunyo madaniyatining eng nodir asari deb ta'riflaganlar.

Islom dinida har bir kishining izzati, hurmati, ibratli bo'lishi uning ilmiga, aql-u farosatiga bog'liq ekanligi ta'kidlanadi. Bu xususida Muhammad payg'ambar o'z hadislarida shunday fikr bildiradilar; "Har bir musulmonga ilm qilish farzdir...Bir soat ilm o'rganish kechasi bilan namoz o'qib chiqqandan afzaldir. Bir kun ilm o'rganish uch oy ro'za tutgandan yaxshiroqdir".

Zero, Qur'oni Karimda kishilarni ilmi va bilimli bo'lishga da'vat etuvchi juda ko'p g'oyalar mavjud. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) ga nozil bo'lgan muqaddas Qur'oni Karimning eng birinchi oyati "o'qi" degan so'z bilan boshlanadi. Alloh taoloning bu amri faqatgina "o'qish" degan tushunchni bermaydi. Ko'pgina mufassirlar bu so'zni "bilim yigish" ma'nosida talqin qiladilar.

Dinimizda yaxshilik va pokizalikning naqadar buyuk ne'mat ekanligini, birovga ozor bermaslik, til bilan dilni doimo bir tutish, nochorlarga zakot berish va ko'ngilni ko'tarish chin insoniy fazilat ekanligi xususida juda ko'p eslatmalar mavjudligi barchamizga ayon. Islomda diniy qadriyat tushunchasi saxiylik, insonparvarlik, saxovat, mehr-oqibat va yuksaklikka olib boruvchi ma'naviy malham sifatida talqin etiladi.

Diniy qadriyatlar va unga amal qilish, ergashish shaxsning ma'naviy ehtiyojlarini, aqliy, ruhiy e'tiqodi va iymoni bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatadi va bu narsa axloqiy tarbiyaga juda katta ijtimoiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbek xalqi e'zozlaydigan saxovat, rahm-shafqat, ehtirom va oliyjanoblik, yaxshilik va ezgulik kabi insoniy fazilatlarining shakllanishida diniy qadriyatlarning roli katta. Bu qadriyatlarimiz zamiridagi inson kamoloti va iymon salomatligi haqidagi qarashlar zamonamiz yoshlarining hayotda o'z o'rnini, kasb-kori va mavqeini egallashda bitmas-tuganmas yarbiya xazinasi bo'lib xizmat qiladi. Diniy qadriyatlar hodisa, jaroyon sifatida insonning yoshi, jinsi, xulqi va jismoniy, ma'naviy ehtiyojlarining natijasidir. Islom mutafakkirlari dunyoqarashida yosh avlodni komil inson qilib tarbiyalashda juda katta e'tibor berilgan. Bu qarashlardan foydalanish yoshlar tarbiyasida dolzarb masala ekanligi barchamizga ayon haqiqatdir.

Milliy qadriyatlarimiz umuminsoniy qadriyatlar bilan uzviy bog'liqdir. Bugungi kundagi turli zararli ta'sirlardan saqlanish har qanday sharoitda ham xalqimizga azaldan xos bo'lgan miliy qiyofa, betakror fazilatlar egasi bo'lib qolishimizda qadimiy an'ana va qadriyatlarimizni asrab-avaylash, ularga amal qilib yashash o'ta muhim ahamiyat kasb etadi. Yer yuizidagi har bir millat faqat uning o'ziga xos bo'lgan an'ana va qadriyatlar bilan alohida ajralib turadi.

Tabiiyki, har qaysi xalqning bebaho boyligi bo'lgan bunday qadriyat va an'analar bir-ikki kunda paydo bo'lib qolmagan. Insoniyatning necha ming yillik tarixiy tajribasi shuni ko'rsatadiki, biror bir narsaning an'anaga, ayniqsa, qadriyatga aylanishi uzoq davrni talab qiladi. Yillar, asrlar davomida muayyan qarash, odat, tushuncha, tajribalar, zamonlar, avlodlar sinovidan o'tadi, sayqal topib boradi.

Agar ular keying avlodlar tomonidan ham qabul qilinsa, davom ettirilib, urf-odatga aylansa, endi ularni milliy an'ana va qadriyat deb atash mumkin bo'ladi. O'zbek xalqining asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlar ham uzoq tarixiy jaroyonda shakllangan. Jumladan, o'zi tug'ilib o'sgan ona yurtiga ehtirom, o'z taqdirini mana shu yurtsiz tasavvur qila olmaslik, o'tgan ajdodlar xotirasiga sadoqat, kattalarga doimiy hurmat ko'rsatish, har qanday sharoitda ham hayo va andishani saqlash, turmushda poklikka alohida e'tibor berish singari ko'plab fazilatlar bizning milliy qadriyatlarimizning asosini tashkil etadi.

Diniy va milliy qadriyatlarga asoslangan keksalar maktabining o'rne oilada ham, jamiyatda ham alohida ahamiyatga ega. Chunki ular kelajak avlodni xalqimizning ko'p asrlik diniy va milliy qadriyatlari va an'analari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Keksalarni hurmat qilish, ularga e'tibor va g'amxo'rlik ko'rsatish jamiyatimizning o'ziga xos yuksak ma'naviy va madaniy belgisidir.

Xalqimizga xos bo'lgan bunday yuksak fazilatlar istiqbolimizning dastlabki yillaridan mamlakatimizda davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Respublikamizda nuroniylarning boy hayotiy tajribasidan unumli foydalanish, mahalla institutlarini joylarda xalqning chinakam maslakdoshi va ko'makdoshiga aylantirish borasidagi islohotlar el-yurtimizning tinch va faravon hayotini, sog'lom va ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Keksalar ko'pni ko'rgan aql va idrok bilan har ishda maslahat bera oladigan, yoshlarga katta tarbiyaviy ta'sir ko'rsata oladigan kishilardir. Keksalarni hurmat qilish, ulardan saboq olish, hayot tajribasini o'rganish, ma'naviy kamolot uchun yangi imkoniyatlar izlashga harakat qilishdir.

Keksalarimiz hayotida ko'p og'irlik, yengillik ko'rgani sababli farzandlarining istiqbolini ulardan ko'proq o'ylaydilar. Ba'zan ularning nasihatleri noqobil farzandlarga og'irroq tuyiladi. Bu hayotni chuqur bilmaslik, hayotning turli jarayonlariga yengil-yelpi qarashning oqibatidir.

Ular mana shu qarashlar oqibatida hayotda o'z yo'llaridan adashishlari, hayot imkoniyatlarini qo'ldan boy berishlari mumkin. Ularning bu boradagi fikrlarini shakllantirishda keksalarning o'rne beqiyosdir. O'zbek mahallalarida faol harakatlarni olib borayotgan keksa yoshdagi otaxon va onaxonlar bu borada o'zlarining maslahatlarini ayamay kelishmoqda.

O'zlarining ibratomuz hayot yo'llari bilan bugungi kun yoshlariga go'zal namuna maktabi bo'lib kelmoqdalar. Xulosa qilib aytganda, talim va tarbiya jarayonida islom dini asoslari va buyuk mutafakkirlari g'oyalaridan qolaversa, milliy an'ana va qadriyatlarimiz ruhida tarbiyalanish insonni ma'naviy yuksaklikka chorlaydi. Bugun qadriyatlar qadr topgan yurtimizda manaviy va milliy boylilarimizni bizga yetkazib berayotgan keksalarni har tomonlama rag'batlantirishga doir amalga oshirilayotgan chora tadbirlar ular uchun nafaqat moddiy, ayni paytda katta ma'naviy-ruhiy madatdir.

Yurtimizda bunday hurmat e'tibor va g'amxo'rlik uchun minnaddorlik tuyg'usi fuqarolarimizning tinch va osoyishta hayoti ertangi kunga bo'lgan ishonchi yosh avlodni



Vatanga, mustaqillikning buyukligi yosh avlodning umuminsoniy va milliy qadriyatlar ruhida tarbiyashda o'z ifodasini topmoqda

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimov.I.A “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” Tosh- “Ma’naviyat” -2008
2. Karimov.I.A “Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz” Tosh- “O'zbekiston”-1999
3. Ochilova.B “Milliy-ma’naviy yuksalishda meros, qadriyatlar va vorisiylik” Tosh- “Istiqlol”-2009
4. Abdulhakm Shariy Juzjoniy. “Tasavvuf va inson” Tosh-“Adolat”-2001
5. Jovliyev.T “An’analar hayot sabog'i” Tosh-“O'zbekiston”-1992.